

Әдебиятлар

1. Әлеуов Ә. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиуи хәм раўажланыуы. – Нөкис: «Билим», 1993.
2. Мажитов С. Шығармалары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992.
3. Алеуов Ә., Сейтмуратов Қ. Қарақалпақстанда жадидчилик ҳаракати ва С. Мажидов. – Тошкент: «Фан», 2010.
4. Сейтмуратов Қ. С.Мажидовнинг маърифий-педагогик қарашлари узлуксиз таълим тизимида. – Тошкент: «Фан», 2006.
5. Мажитов С. Таңламалы шығармалары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1965.
6. Мажитов С. Шығармалары. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1992.
7. Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988.

РЕЗЮМЕ. Мақолада атоқли шоир ва маърифатпарвар Сейфулғабид Мажидовнинг маърифий-жадидчилик фаолияти ва таълим-тарбиявий қарашлари ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о просветительско-джадидской деятельности и педагогических взглядах Сейфулгабид Мажидова, известного поэта-просветителя.

SUMMARY. The article talks about the educational – jadid activities and pedagogical views of Seyfulgabit Majidov, a famous poet-educator.

MEDIA KONTENT ASOSIDA TALABALAR TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

B.Tolepov – mustaqil izlanuvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti


Tayanch soʻzlar: kontent, media kontent, talabalar, tafakkur, tarixiy tafakkur, rivojlantirish, tarixiy tafakkurni rivojlantirish, metod, talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantiruvchi metodlar.

Ключевые слова: контент, медиаконтент, учащиеся, мышление, историческое мышление, развитие, развитие исторического мышления, метод, методы, развивающие историческое мышление учащихся.

Key words: content, media content, students, thinking, historical thinking, development, development of historical thinking, method, methods for developing students' historical thinking.

Kirish. Shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning puxta oʻzlashtirilishida oʻqitish (yoki taʼlim olish)ning shakl, vosita hamda texnologiyalari bilan birga taʼlim metodlari va usullaridan maqsadli foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy taʼlimda talabalarda tahliliy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetentsiyalarini rivojlantirish muammosining tobora dolzarblashayotgani bejiz emas. Talabalar tomonidan tahliliy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash kompetentsiyalarining samarali oʻzlashtirilishi uchun ijtimoiy, gumanitar fanlarni oʻqitishda yetakchi oʻrin egallagan turkum metodlardan oʻrinli, maqsadli foydalanish kutilgan natijani qoʻlga kiritishga imkon beradi.

Asosiy qism. Tadqiqotni olib borish davrida tanlangan ilmiy muammo mohiyatini nazariy tahlil qilish, talabalar faoliyatini amaliy ishlar fonida kuzatish orqali media kontent asosida talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi metodlarning samarali ekanini tasdiqladi (1-rasm):



1-rasm. Media kontent asosida talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlari

1. Kontent-tahlil (content analysis) metodi. Mazkur metod “ikkilamchi dalillarni oʻrganish orqali oʻtmish voqeliklariga oid maʼlumotlarga ega boʻlish, qandaydir tarixiy hodisaning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasini belgilash” [9]; “ijtimoiy-tarixiy mavjudlikka (voqea,

hodisa, jarayonga) oid toʻliq, ishonchli, toʻgʻri maʼlumotlarni olish maqsadida material mazmunini sifat va miqdor jihatidan oʻrganish” [4] uchun xizmat qiladi. “Kontent-tahlil tegishli hujjat mazmunini gʻoyaviy va ramziy jihatdan miqdoriy bayonini ishlab chiqishga yoʻnaltiriladi. Bu turdagi tahlil jamiyatda OAV yordamida yaratilayotgan hissiy kartinasi namoyon qiladi” [12:15]. Metodni qoʻllashda shunday shart qoʻllaniladi: “tarixiy dalillar real (qayd etilgan, isbotlangan yoki eʼlon qilingan) hujjatlarda oʻz aksini topgan boʻlishi zarur” [13].

Soʻz yuritilayotgan metod “olingan axborotning manbasi sifatida monografiya, ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar, mavjud tadqiqotlarning statistik dalillar hisoblanadi” [8:14]. Shu bilan kontent-tahlil yordamida turli, misol uchun, kitoblar, gazetalar, jurnallar, anjumandagi chiqishlar, OAV, jumladan, internet va ijtimoiy tarmoqlarda eʼlon qilinayotgan materiallar boʻyicha izlanishlar olib boriladi” [12].

II. Tavsiflovchi metod. Bu metod tarixiy “jarayon va hodisalarning tashqi xususiyatlari, belgilari va tavsifini yoritish” [4]ga, “oʻtmishda sodir boʻlgan voqeliklarga oid maʼlumotlarni bir nuqtaga joylashtiruvchi va tavsiflovchi maʼlumotlarni tahlil qilish, tarixiy dalillar toʻgʻrisidagi tasavvurga ega boʻlish va hal qiluvchi anʼana, qonuniyat va muhim jihatlarini tushunish, shuningdek, murakkab dalillarni umumlashtirish va mustahkamlash orqali uning oson tushunilishi va talqin qilinishini taʼminlovchi qisqacha bayonni shakllantirish” [10]ga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy maʼlumotlarni tavsiflovchi metod yordamida ularni amaliyotda qoʻllash, foydalanish boʻyicha asoslangan qarorni qabul qilish, oqilona xulosa chiqarish kabi harakatlarni sodir etish natijasida kelgusi faoliyat strategiyasini ishlab chiqish, keyingi bosqichlarda tahlilni

yanada mukammal amalga oshirish uchun asosni yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

Tarix fanlaridan tashkil qilinadigan darslarda tavsiflovchi metodni qo'llash, talabalarni tanqidiy, tahliliy va mantiqiy fikrlashga undovchi o'quv topshiriqlari – pedagogik masala, keys, annagramma, ko'p darajali test kabilardan foydalanish ularda tarixiy tafakkurni samarali rivojlantiradi.

Ushbu metod ijtimoiy fanlarda keng qo'llaniladigan metodlardan biri, qolaversa, “Qiyosiy pedagogika”da esa asosiy metod sifatida ko'zga tashlanadi. Qiyosiy pedagogik tadqiqotlarning muhim jihati qiyosiy o'rganiladigan ko'rsatkichlarni ishlab chiqish sanaladi” [11].

III. Qiyoslash metodi. Bu metod “tarixiy voqea, hodisa va jarayonlarning xususiy va umumiy qonuniyatlarini, o'xshash jihatlarni, farqlarini, rivojlanish tendentsiyalarini aniqlovchi metod bo'lib, ta'lim sohasida undan foydalanish “o'qitish amaliyoti, umumiy hamda maxsus pedagogik g'oyalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashliklar va farqlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Metod dastlab sezilarli darajada tasodifiy xarakter kasb etadi hamda “model – prototip” algoritmi bo'yicha qiyoslashni nazarda tutadi. So'ngra algoritmda uchinchi komponent (tarkibiy qism) – qiyoslash mezon paydo bo'ladi” [12].

Tadqiqot davrida talabalar Buxoroda 1784-1785-yillarda amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan pul islohotiga oid ma'lumotlarni taqdim qildi. Bu davrda quyidagi pul birliklari zarb qilingan (1-jadval).

IV. Tarixiylik metodi. Mazkur metod “ijtimoiy-tarixiy voqea, hodisalarni, muayyan sharoit hamda vaziyatlarda yuzaga kelish, shakllanish va rivojlanish jarayonida ko'rib chiqishni nazarda tutib” [7], “tarixiy rivojlanishni ham alohida qism ham umumiy tizim sifatida e'tirof etgan holda uning dinamik rivojlanishini tipini tavsiflaydi” [9] sanaladi.

Bunda eng asosiysi – o'tmish voqealarini qayta tiklash, bugungi kun nuqtayi nazaridan yoritish hamda ularga tayangan holda taraqqiyot istiqbolini belgilashdir” [11]. Shu bilan birga metod “muammoning mohiyatini uni yuzaga keltiruvchi dastlabki sabablar, manbalar hamda tarixiy omillarni tadqiq qilish orqali anglashga yordam beradi” [14].

1-jadval. Buxoro amirligida amir Shohmurod tomonidan zarb qilingan pul birliklari (1784-1785 yillar)


Pul birligi	Tarkibi	Miqdori	Ekvivalenti	Ko'rinishi
Tilla (“Ashrafiy”)	Oltin (oltin tanga)	4,5-5g (1 misqol)	1 tilla tanga = 22 kumush tanga	
Tanga	Kumush (kumush tanga)	2-3,25g	1 kumush tanga = 44-64 mis tanga	
Fuls (ko'plikda “fulus”)	Mis (mis tanga)		Mis va kumush tanganing o'zaro nisbati tez-tez o'zgarib turgan	

Ta'lim jarayonida tarixiylik metodini qo'llashda tadqiqotchi I.M.Usmonalievning [7:99-101] “Xammurappi qonuni”ga oid matn bilan ishlash tajribasidan foydalanish mumkin.


V. “Idrok xaritasi” metodi. Mohiyatiga ko'ra “Idrok xaritasi” (ing. Mind map, Cognitive Map, Concept Map, asoschisi – Toni Byuzen) metodi “tushunchalar hamda tahlil qilinadigan obyekt yoki hodisaning qismlari o'rtasidagi g'oyaviy, sabab-oqibat, assotsiativ aloqalarni majmuaviy, tizimli, vizual shaklda taqdim qilishga yordam beradigan metod” [11:29]; “chiziqli tarkibiy tuzilmani cheklamagan holda g'oya, tushuncha, vazifa va turli-tuman predmetlarni oddiy usulda tashkillashtirish, tizimlashtirish yo'li; g'oyalarni tizimlashtirishga xizmat qiladigan boshqa metodlarga qaraganda tezroq moslashadigan hamda ijodiy xarakterga ega muqobil metod” [3] hisoblanadi.

“Idrok xaritasi”ni “chizish” yangi assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi, hosil bo'lgan umumiy obraz esa muammo mohiyatini ifodalovchi tushunchalarning uzoq vaqt yodda saqlanishiga yordam beradi [11]. Metod bilan ishlash orqali “ta'lim oluvchilar tahliliy, tanqidiy, ijodiy fikrlash malakalarini o'zlashtiradi; “mavjud bilimlarni tizimlashtirishga o'rganadi” [1:125]; “axborotlarni to'g'ri qayta bayon qilish malakalari rivojlanadi, o'quv materialini oson o'zlashtiriladi, amaliy mashg'ulotlarga samarali tayyorgarlik ko'rish imkoniyati yuzaga keladi, o'quv topshiriqlarini bajarish jarayoni qiziqarli kechadi” [13:136-137]; “foydalanish uchun juda qulay, ixcham, ma'lumotlarni qismlarga bo'lib o'rganish mumkin, axborot qisqa ifodalanadi” [14].

Tadqiqotni olib borish davrida X.K.Boymirzayev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot chog'ida “Zardushtiylar davlati boshqaruvining asoslari”, “Avesto”ning ma'naviy-huquqiy asosi” va “Avesto”ning umumiy asosi” [2:65-66] mavzularida tengdoshlari yaratgan “idrok xaritalari” misolida talabalarda tegishli metodni qo'llash malakalari rivojlantirildi (4-6-rasmlar):



2-rasm. Zardushtiylar davlati boshqaruvining asoslari



3-rasm. “Avesto” ning ma'naviy-huquqiy asosi



4-rasm. "Avesto"ning umumiy asosi

VI. Klaster metodi – zamonaviy ta’limda faol qo’llaniladigan metodlardan biri. “Klaster” (g’uncha, to’plam, bog’lam) metodi “puxta o’ylangan strategiya” [12:93-94]; “ta’lim oluvchilarga qandaydir mavzu ustida erkin fikrlashga, belgilangan mavzuga oid o’z bilim, tushuncha, tasavvurlaridan foydalanish, xotirani kuchaytirish, keng qamrovli fikrlashga imkon beradigan

Adabiyotlar

1. Алибоев Т.Ч. Инновацион таълим муҳитида ўқувчиларда креативлик сифатларини ривожлантириш технологияларини такомиллаштириш (“Технология” фани мисолида): Пед.фанл.бўйича фалс.докт. (DPh) ... дис. – Т.: 2020. 125-б.
 2. Boymirzaev X.K. Innovatsion ta’lim muhitida tarix o’qitish metodikasini takomillashtirish (“O’zbekistonda davlatchilik tarixi” fani misolida): ped.fanl.bo’yicha PhD ... dis. – Namangan: 2021. 65-66-b.
 3. Древнерусская гривна // https://znanierussia.ru/articles/Древнерусская_гривна.
 4. Ефимова Н.В. Контент-анализ как метод исследования содержания Интернета // https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/115163/1/C_119-120_Контент-анализ_как_метод_исследования_содержания_Интернета.
 5. Законы Хаммурапи // https://ru.wikisource.org/wiki/Законы_.
 6. Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши / Мет.қўлл. Тузув.: Д.Рўзиева, М.Усмонбоева, З.Ҳолиқова. – Т.: ТДПУ нашриёти, 2013. – 36-б.
 7. Качественный анализ // <https://c-discurs.ru/methods/kontent-analiz/> katschestvennyiy-kontent-analiz.
 8. Количественный анализ // <https://c-discurs.ru/methods/kontent-analiz/kolichestvennyiy-kontent-analiz>.
 9. Контент-анализ // <https://c-discurs.ru/methods/kontent-analiz>.
 10. Коровин Д. Что такое кластер? / Д. Коровин // Ж. Компьютерра. – М.: 2002. № 5. – С. 92.
 11. Куликова В.В. Ментальная карта как метод обучения // Карельский научный журнал. – Петрозаводск: 2021. - № 1 (34). Том 10. – С. 29.
 12. Макеева В.А. Контент-анализ как метод исследования настроений СМИ в переводе и межкультурной коммуникации // <https://cyberleninka.ru/article/n/kontent-analiz-kak-metod-issledovaniya-nastroeniy-smi-v-perevode-i-mezhkulturnoy-kommunikatsii>.
 13. Манаев О.Т. Контент-анализ – описание метода // <https://psyfactor.org/lib/kontent.htm>.
 14. Маталасова О.В. Развитие критического мышления у студентов на уроках истории. // “Образование. Карьера. Общество”, – Кемерово: 2020. № 4 (67). – С. 45-46.
- РЕЗЮМЕ.** Maqolada media kontent asosida talabalar tarixiy tafakkurini rivojlantirish jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan usullarning kelib chiqish tarixi va ularning didaktik imkoniyatlari yoritiladi.
- РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается история возникновения методов, обеспечивающих эффективность процесса развития исторического мышления учащихся на основе медиаконтента, и их дидактические возможности.
- SUMMARY.** The article discusses methods aimed at ensuring an effective process for developing students' historical thinking based on media content, as well as their didactic potential.

pedagogik strategiya, tezkor moslashuvchan ko’p funktsiyali metod” [13:308]; “asosiy g’oyaviy birliklarni ajratib ko’rsatgan holda ular o’rtasidagi barcha aloqalarni sxema ko’rinishida qayd etish orqali axborotlarni taqdim qilishning grafikli shakli” [10:92].

Xulosa. Turli shakl va yo’nalishdagi faoliyatlarni tashkil etishdagi kabi pedagogik jarayon samaradorligi ham ko’p jihatdan qo’llanilgan metodlar va ularning funktsional imkoniyatlariga bog’liq. Shu sababli pedagogik faoliyatni tashkil qilishda uning samarali bo’lishini ta’minlaydigan metodlarni oqilona, to’g’ri tanlash talab qilinadi. Mazkur talabni inobatga olgan holda ilmiy-pedagogik tadqiqotni amalga oshirishda media kontent asosida talabalar tarixiy tafakkurining samarali rivojlantirilishini ta’minlovchi metodlarni oqilona tanlash vazifasi qo’yildi. Belgilangan vazifani bajarish orqali kontent tahlil, tavsiflovchi, qiyoslash, tarixiylik, “Idrok xaritasi” hamda klaster metodlarining tegishli jarayonning muvaffaqiyatli bo’lishidagi ahamiyatga egaligi aniqlandi.